



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI**



**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI**

**O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hamda
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi o'rtasida
hamkorlikni yanada mustahkamlash to'g'risida**

M E M O R A N D U M

Toshkent – 2025

**O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hamda
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi o‘rtasida
hamkorlikni yanada mustahkamlash to‘g‘risida
M E M O R A N D U M**

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi mudofaa vaziri Sh. Xalmuxamedov, keyingi o‘rinlarda – Mudofaa vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi nomidan Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari O. Xasanov, keyingi o‘rinlarda – Ma’naviyat va ma’rifat markazi, birgalikda Tomonlar deb ataluvchilar tenglik va o‘zaro manfaatdorlik, bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik, o‘zaro hurmat qilish, hamkorlik, o‘zaro yordam tamoyillariga tayangan holda Tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni sifatli yangi darajaga ko‘tarishga bo‘lgan o‘zaro intilishlarini hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 4- avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ–3898- son hamda 2021- yil 26- martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–5040- son qarorlariga asosan, an’anaviy do‘stona munosabatlarni yanada mustahkamlash, barcha yo‘nalishlarda har tomonlama hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish va ikki tomonlama hamkorlikka yangi sifat berish va uning huquqiy negizini mustahkamlash zaruratidan kelib chiqib, quyidagilar to‘g‘risida kelishib oldilar.

I. Hamkorlikning maqsadi

1. Mudofaa vazirligida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yanada rivojlantirish, o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, soha yo‘nalishidagi tanlov va musobaqalar, davra suhbatlari va mavzuli kechalarga “Ma’rifat targ‘ibotchilari” jamoati a’zolarini keng jalb etish tizimini joriy etish bo‘yicha ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarni tartibga solish, harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ma’rifiy saviyasi, intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda axloqiy-ruhiy holatini yuksak darajada saqlab turish, ularda vatanparvarlik va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, milliy g‘urur va faxr tuyg‘ularini yuksaltirish hamda sog‘lom dunyoqarash va faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish maqsadida hamkorlik qiladilar.

2. Tomonlar mazkur Memorandum qoidalari hamda o‘zlarining vakolatlari doirasida quyidagi sohalarda yaqindan hamkorlik o‘rnatiladi:

o‘zaro hamkorlikda harbiy xizmatchilar bilan ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik mashg‘ulotlari dasturini ishlab chiqish va o‘tkazilishni ta’minlash;

Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik mashg‘uloti dasturining quyidagi bo‘limlar bo‘yicha mavzular tayyorlash:

O‘zbekiston tarixi bo‘limi (bo‘limdagi mavzular o‘zbek xalqining boy tarixiy va ma’naviy merosi, birinchi va ikkinchi renessans namoyandalarining hayoti va faoliyatini o‘rganish, ma’rifatparvar, jadidchilik harakati namoyandalari to‘g‘risidagi bilimlarni yanada mustahkamlashga qaratiladi);

Prezident asarlari bo'limi (bo'limdagi mavzular davlat boshqaruv tizimi, mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, "O'zbekiston strategiyasi – 2030" hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining chiqishlari va nutqlari bo'yicha bilimlarini mustahkamlashga yo'naltiriladi);

MMT mashg'ulotlarini o'tkazilishini yangi sifat bosqichiga olib chiqish va uni jozibadorligi hamda samaradorligini oshirish maqsadida Mudofaa vazirligi va uning quyi bo'g'inidagi boshqaruv organlari hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi va uning hududiy bo'limlari orqali Mudofaa vazirligi harbiy qism va muassasalariga harbiy xizmatchilar bilan ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlariga tegishli mutaxassislarni jalb etish;

o'zaro hamkorlikda harbiy xizmatchilar qalbi va ongiga mustaqillik, yuksak ma'naviyat, insonparvarlik an'analarga sadoqat, milliy o'zlikni anglash g'oyalarini yanada chuqur singdirish, radikalizm va ekstremizm kabi yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash hamda ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va madaniyat departamentida harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy ma'rifiy tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar o'tkazishni yo'lga qo'yish;

Mudofaa vazirligi harbiy madaniyat va san'at bo'linmalariga xalqimiz tarixi va bugungi hayotining eng yorqin sahifalarini, mamlakatimizning erkin demokratik taraqqiyotini aks ettiruvchi vatanparvarlik ruhidagi asarlar yaratishda har tomonlama ko'maklashish;

xorijiy tajribani, bugungi kundagi mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish va tahlil qilish orqali ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishning samarali va ta'sirchan targ'ibot texnologiyalari hamda usullarini ishlab chiqish;

harbiy xizmatchilarning milliy va jangovar ruhini yanada oshirish, axloqiy-ruhiy tayyorgarligini mustahkamlashga, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yoritib berishga qaratilgan vatanparvarlik ruhidagi ko'rgazmali targ'ibot-tashviqot vositalarining yangi namunalarini ishlab chiqish;

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilishda ko'maklashish.

Tomonlar boshqa sohalarda ham o'zaro samarali hamkorlikni yo'lga qo'yadilar.

II. Hamkorlikni amalga oshirilishi

3. Tomonlar 10 kunlik muddatda o'zlarining tarkibiy va hududiy bo'linmalarining mas'ul xodimlari ishtirokida mazkur Memorandumda nazarda tutilgan tadbirlarni o'zaro hamkorlikda amalga oshirib boruvchi va muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhlar tuzadi.

Ishchi guruhlar tomonidan tadbirlarni amalga oshirish borasida tegishli rejalar ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi va ularning samarali ijro etilishi ta'minlanadi.

Memorandum doirasidagi masalalar yuzasidan to'g'ridan-to'g'ri muloqotga kirishuvchi mansabdor shaxslarning ro'yxati o'zaro almashiniladi.

Memorandum asosida aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish muddatlari va shartlari Tomonlarning kelishuviga asosan hal etiladi.

4. Memorandumda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida Mudofaa vazirligi hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi o'zaro hamkorlikda hamda o'rnatilgan tartibda respublikamizning barcha hududlarida harbiy xizmatchilar bilan o'tkaziladigan MMT mashg'ulotlari samaradorligini yanada oshirish, ma'naviy-ma'rifiy mavzularda o'quv mashg'ulotlari, seminar-treninglar, shuningdek, turli sanalar va bayram tadbirlariga bag'ishlangan tematik ma'ruzalar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, madaniy-ma'rifiy kechalar, davra suhbatlarini tashkil qiladilar.

5. Tomonlar o'z faoliyatlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, ushbu Memorandum asosida chora-tadbirlarni amalga oshirishda qonun hujjatlarida belgilangan tartib va qoidalarga amal qiladilar.

6. Tomonlar rasmiy OAV, veb-saytlar va bosma nashrlarda o'zaro hamkorlikda o'tkazilgan tadbirlarni kelishilgan holda yoritib boradilar.

7. Memorandum qoidalarini qo'llash yoki talqin qilishda kelib chiqadigan har qanday qarama-qarshilik va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida maslahatlashuv va muzokaralar orqali hal etiladi.

8. Ushbu Memorandumga tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida tayyorlangan yozma ko'rinishdagi bayonnomalar orqali o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

9. Ushbu Memorandum kelgusida Tomonlarning tarkibiy va hududiy bo'linmalari uchun faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib hamkorlik munosabatlarini yanada kengaytirishga, huquqiy, ilmiy, ijtimoiy, shartnomaviy-huquqiy munosabatlarga kirishishga, bitim va shartnomalar imzolash orqali hamkorlikni yanada kengaytirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

III. Axborotlarni oshkor qilmaslik

10. Mazkur Memorandum yoki unga muvofiq tuzilgan boshqa kelishuvlarning bajarilishi vaqtida har bir Tomon boshqa Tomonga taqdim etgan yoki undan qabul qilgan hujjat, konfidensial xarakterdagi axborotlarni yoki boshqa ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

III. Maslahatlashuv

11. Tomonlar ushbu Memorandumni qo'llash yuzasidan o'zaro kelishilgan vaqtlarda maslahatlashuvlar o'tkazadilar.

Maslahatlashuvlar Tomonlar o'rtasida hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish yo'llari hamda o'zaro qiziqish uyg'otadigan boshqa masalalarni muhokama etish uchun o'tkaziladi.

12. Tomonlar umumiy manfaatga ega bo'lgan o'ziga xos yo'nalishlardagi masalalarni muhokama qilish uchun ishchi guruhlarini tashkil qilishlari mumkin.

Maslahatlashuvlarning kun tartibi aloqa kanallari orqali kelishiladi.

IV. O'zgartirish va qo'shimchalar

13. Har bir Tomon mazkur Memorandumga yoxud uning bir qismiga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritishni yozma ravishda taklif etishi mumkin.

14. Tomonlar o'zaro kelishgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda mazkur Memorandumning ajralmas qismi hisoblanadigan va Tomonlar belgilagan kundan boshlab kuchga kiradigan qo'shimcha kelishuv shaklida rasmiylashtiriladi.

15. Har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar mazkur Memorandumdan kelib chiqqan ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta'sir etmasligi lozim.

VI. Nizolarni hal etish

16. Mazkur Memorandum qoidalarini talqin qilish, bajarish va qo'llashda Tomonlar o'rtasida vujudga keladigan har qanday kelishmovchilik yoki nizolar o'zaro maslahatlashuvlar va muzokaralar o'tkazish yo'li bilan do'stona ravishda hamjihatlikda hal qilinadi.

V. Yakuniy qoidalar

17. Mazkur Memorandum imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 5 (besh) yil muddat davomida amal qiladi.


18. Tomonlar bekor qilish haqida o'zgacha kelishmagan taqdirda, mazkur Memorandumning amal qilish muddati xuddi shu muddatga va shartlarda uzaytirilgan hisoblanadi.

19. Tomonlarning har biri mazkur Memorandumning amal qilishini tugatish borasida ikkinchi tomonni kamida uch oy oldin yozma ravishda ogohlantirib, uning amal qilishini bekor qilishi mumkin.


20. Mazkur Memorandum Tomonlarning o'zlari ishtirokchisi bo'lgan boshqa memorandumlardan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlariga daxl qilmaydi.

21. Mazkur Memorandum Taraflarda hech qanday yuridik va moliyaviy majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi.

22. Ushbu Memorandum Toshkent shahrida 2025- yil "___" ____ kuni bir xil kuchga ega bo'lgan ikki asl nusxada, davlat tilida tuzildi.

**O'zbekiston Respublikasi**
mudofaa vaziri

Sh. Xalmuxamedov

2025- yil " 9 " aprel
12 - son

**Respublika Ma'naviyat**
va ma'rifat markazi rahbari

O. Xasanov

2025- yil " 9 " aprel
08 - son